

**MUSIQIY-NAZARIY FANLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION
YONDASHUV**

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

San'atshunoslik fakulteti

Musiqa ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

Rasulova Yulduz Baxtiyarovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida, uni shaxs sifatida barkamol bo'lib yetishishida musiqiy-nazariy fanlarning roli va ahamiyati, darslarda innovatsion usullarning qo'llanilishining ijobiy natijalari xaqida so'z yuritilgan.

Kalit so`zlar: musiqa, madaniyat, tarix, pedagogika, adabiyot, san'at, estetika, musiqiy ta'lif, tarbiya, innovatsiya, texnologiya.

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ОРГАНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНО-
ТЕОРЕТИЧЕСКИХ НАУК**

Навоийский государственный педагогический институт

Факультет искусств

Преподаватель кафедры музыкального образования

Расулова Юлдуз Бахтияровна

Аннотация: В данной статье говорится о роли и значении музыкально-теоретических наук в воспитании подрастающего молодого поколения и развитии их как личности, а также о положительных результатах использования инновационных методов на занятиях.

Ключевые слова: музыка, культура, история, педагогика, литература, искусство, эстетика, музыкальное образование, воспитание, инновации, технологии.

**INNOVATIVE APPROACH IN ORGANIZING MUSIC-THEORETICAL
SCIENCES**

Navoi State Pedagogical Institute

Faculty of Arts

Teacher of the Department of Music Education

Rasulova Yulduz Bakhtiyorovna

Abstract: This article talks about the role and importance of music-theoretical sciences in the education of the growing young generation and the development of them as individuals, as well as the positive results of using innovative methods in classes.

Key words: music, culture, history, pedagogy, literature, art, aesthetics, musical education, upbringing, innovation, technology.

O‘qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta’lim-tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o‘qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo‘lsak, o‘qituvchi, avvalo, o‘zining so‘z mahorati, cholg‘u asbobida chalish, qo‘sish kuylash, turli ko‘rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o‘ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o‘quvchilar o‘qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o‘qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o‘rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy-pedagogik tayyoragarlik ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta’lim - tarbiya samaradorligini ta’minalashda, kelajak uchun mas’ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o‘rnak bo‘lib xizmat qiladilar. Demak, har bir ta’lim bo‘g‘inida shu jumladan, umumta’lim maktablarida “Musiqa madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg‘or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag‘batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko‘nikma va malakalarini

shakllantirish uchun avvalo, o‘quv - biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o‘qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg‘ulotlari jarayonida “Talaba treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o‘tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs-munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo‘lib ishlash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg‘ulotlarida “Kichik guruqlar holida ishlash”, “Individual ishlash”, “Differensial guruhlarga bo‘lish”, “Multimedia texnologiyasi”, “Konsert darsi”, musiqa tarixi fanini o‘tishda “Muammoli vaziyat”, “Viktorina darsi”, “Savol-javob”, cholg‘u ijrochiligi darsini o‘qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo‘llash talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin. Pedagogika oliv o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning yangicha va samarali ish tajribalarini o‘rganish.
2. Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to‘sinqilik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo‘llarini izlash.
3. Tajribali o‘qituvchilarning darslarini ilg‘or innovatsion texnologiyalarini qo‘llab o‘tish borasidagi o‘ziga xos usullari, ularni farqli va o‘xhash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o‘z faoliyatida tatbiq etishga o‘rganish.

Hozirgi davrda har bir o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikmalardan biri- darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va o‘tkaza olish ko‘nikmasidir. O‘z tarkibiga ko‘ra bu ko‘nikma ham serqirra va murakkabdir. Ushbu yo‘nalishdagi kuzatuvchilarimiz, tajribali pedagog o‘qituvchilar bilan suhbat va mavzuga oid o‘quv uslubiy va ilmiy manbalarni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Darslarni innovatsion texnologiya asosida tashkil etish uchun, avvalo, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonidan unumli foydalananish darsga nazariy va amaliy tomondan puxta tayyorgarlik ko‘rish lozim:

- o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlari davomida egallagan va yanada mustahkamlab borishi lozim bo‘lgan nazariy, pedagogik-psixologik va metodik bilimlarni amaliyatga ongli va samarali qo‘llay olish;

- innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va aniq maqsad, loyiha asosida tizimli olib borilishiga erishish.

Musiqa inson tafakkurining o‘ziga xos turi bo‘lib, asosiy vazifani - inson bilan aloqa qilish funksiyasini bajaradi. Bunday darslarda ma’naviy, amaliy, ijodiy, individual dunyoqarash ustunlik qiladi, ya’ni avtoritar yondashuv va tegishli o‘qitish usullaridan voz kechadi. Musiqa nazariyasi, solfedjio va garmoniya fanlarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mumkin va zarurdir. Yangi texnologiyalardan foydalanish musiqiy nazariy darslarini boyitadi va yangilaydi. Pedagogik fan va amaliyotning hozirgi rivojlanish bosqichida shaxsni shakllantirish muammolari dolzarbdir. Faqat mustaqil, ijodiy, ijtimoiy mas’uliyatlari inson hayotiga va uning atrofidagi dunyoga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Musiqiy-nazariy fanlar bo‘yicha olingan bilimlarni tushunish, tajriba qilish va qo‘llash ko‘plab amaliy mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Bugungi kunda musiqiy ta’lim sifatiga qaratilayotgan e’tibor o‘qituvchilardan ko‘proq ishlashga va texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik usullarni qo‘llash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shuningdek elektron manbalardan, o‘quv va multimedia taqdimotlaridan foydalanish davr talabi ekanligini ta’kidlaymiz. Pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligi ularni birgalikda ishlatishga, mavzular va bo‘limlar bo‘yicha o‘qituvchiga eng munosibini tanlashga imkon beradi.

Multimedia (multimedia - ko‘p muhitlilik) vositalari bu texnik va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan juda turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiyalarni ishlatgan holda zamonaviy texnologiya bilan muloqatda bo‘lib biror axborotni insonga odatdagidan ko‘ra ko‘proq qilish imkonini beradi. Musiqa nazariyasini o‘qitishda multimedia manbalari an’anaviy ravishda quyidagilarga bo‘linadi:

- Musiqiy multimedia texnik jihozlari
- Musiqiy dasturiy ta'minot
- Kompyuterli va Mobil ilovalar (ma'lumotnoma, lug'at, o'yin, o'quv dastur)

Texnologik taraqqiyot to'xtamaydi va inson mehnatini yengillashtirish uchun doimiy ravishda rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan o'qitishning yangi bosqichi bevosita texnologiyalar bilan bog'liq. Texnologiyalar va musiqada innovatsiyalarning qo'llanilishi tufayli musiqiy ta'lim yanada qulay va qiziqarli asboblar bilan boyitilmoqda. Chunki taraqqiyot, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa nazariyasini o'qitishning hozirgi bosqichida innovatsion texnologiyalar va multimedia manbalaridan foydalanish muhimligini ta'kidlaymiz. Innovatsion texnologiya - ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmuasi. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. Demak, innovatsion texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. Shuningdek, o'quvchini mustaqil fikrlash, mushohada qilish, bilim olish, darsning faol ishtirokchisiga aylanishini o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Adabiyotlar:

1. Zuxra Parmanova - "Bolalar folklori – o'zbek adabiyoti manbasi" - Navoiy-2022
2. Akramova X. (2020). Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish - muvaffaqiyat garovi. Akramova X. (2020).

3. Umurzakova L.B “The use of gaming technologies in the musical Education of primary school students” Navoiy-2022